

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА



2021 йил 6-сон



Боши мұхаррір: Наманган давлат университетінің ректоры С.Т.Тургунов

Масъул мұхаррір: Илмий ишлар ва инновациялар бүйіч проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул мұхаррір үринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бүлими бошлиғи Р.Жалалов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аззамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тұхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов. ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад. С.Раширова, акад. А.Тұраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф. Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц. А.Баташов, б.ф.н.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хұжалиги фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзулаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф. Н.Махмудов, и.ф.д., проф. О.Одилов.

Фалсафа фанлари: – акад., Ж.Бозорбоев, ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф. С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д., проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н., доц. М.Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф. А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф. Ш.Хонкелдиев, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. Ф.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д., проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник мұхаррирлар: [Н.Юсупов](#), [Г.Акмалжонова](#)

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи құчаси, 316-үй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсаты қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бүйіч Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чөп этиши тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилген.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси хамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чөп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт түркүм рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 10.05.2021 йилдаги кенгайтирилган йигилишида мұхокама қилиниб, илмий түплам сифатида чөп этишига рухсат этилган (Баённома № 6). Мақолаларнинг илмий савияси ва көлтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021



интеллект может быть развит и использован в рамках определенного обучения или преподавания, чтобы улучшить ввод и вывод учащихся на языке.

Список использованных литератур

1. Armstrong, T. 2009. *Multiple intelligences in the classroom*. Alexandria: ASCD
2. Arnold, J. and C. Fonseca. 2004. *Multiple Intelligence Theory and Foreign Language Learning: A Brain-based Perspective*. IJES, vol. 4, pp. 119-136
3. Gardner, H. 2006. *Multiple Intelligences :New Horizons*. Basic Books.
4. Richards, J. & T. Rodgers. 2001. *Approaches and Methods in language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Smith, Mark ,K. 2002, 2008.'Howard Gardner and multiple intelligences', the encyclopedia of informal education.
6. Sharopova G.Sh. *Methods for teaching vocabulary*. Asian journal of multidimensional research.p32-35.
7. Saidova Z.Kh . Questioning techniques in teaching english- Dostijeniya nauki I obrazovaniya, 2018, 64-65 s.
8. Khaydarova N.G., Ramazonov M. Psychological approach in teaching methods. //Достижения науки и образования.2017. 4(17) .C.101-102.

TETRALOGIYANING TADRIJIY TARAQQIYOTI

Qo'yiliyeva Gulchehra Nazarqulovna

Guliston davlat univrsiteti "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedrasи o'qituvchisi filologiya f. b. f. doktori, dotsent.

kuyliyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon adabiyotidan o'zbek adabiyotiga kirib kelgan roman janrining shakli hisoblangan tetralogiya haqida, uning adabiyotshunoslidiagi o'rganilishi, o'ziga xos xususiyatlari, paydo bo'lisdagi tarixiy va adabiy omillar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Epos, dilogiya, tetralogiya, roman-tetralogiya, roman shakli, umumiy qahramonlar.

THE EVOLUTION OF TETRAGY

Kuyliyeva Gulchehra Nazarkulovna

Gulistan State University

The teacher of the chair of "O'zbek adabiyotshunosligi" doctor (PhD)

kuyliyeva@gmail.com

Annotation: In the current article is about the form of the novel genre, tetralogy which has entered Uzbek literature, its study in literary studies, its specific features, the historical and literary factors of origin and analyzed with the help of the examples of tetralogy.

Keywords: epics, dilogy, tetralogy, novel-tetralogy, novel form, common heroes.

ЭВОЛЮЦИЯ В ТЕТРАЛОГИИ

Куйлиева Гулчехра Назаркуловна

Гулистанская государственный университет



Преподаватель кафедры “Узбекская литература и литературоведение”, (PhD) доцент
kuyliyeva@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется форма жанра романа, пришедшая в узбекскую литературу из мировой литературы о тетралогии, ее изучении в литературоведении, ее специфические особенности, историко-литературные факторы ее возникновения, а также образцы тетралогии.

Ключевые слова: эпос, дилогия, тетралогия, роман-тетралогия, форма романа, общие герои.

Jahon adabiyotshunosligida yangicha adabiy-estetik tamoyillarning izchil takomillashuvi natijasida badiiy tafakkur tadriji bilan bog'liq ilmiy konsepsiylar yuzaga keladi. Binobarin, roman-tetralogiyaning badiiy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarini asoslash, bugungi kun talablari asosida tadqiq etish adabiyotshunoslik fani oldida yechimini kutayotgan masalalardan biridir.

Qahramonlik eposlarini epopeyaning ilk namunalari sifatida sanash mumkin. Jumladan, "Tristan va Izolda", "Satirikon", "Dekameron", "Don Kixot", "Urush va tinchlik", "Anna Karenina" dan tortib, "O'tkan kunlar", "Qirq besh kun", "Hijron kunlarida", "Ufq bo'sag'asida" gacha bo'lgan asarlarda o'z zamonining muhim mavzularini tasvirlash bilan birga, badiiy mahorat masalasiga ham alohida diqqat qaratilgan.

V.G.Belinskiy ta'bıricha, "Roman hozirgi zamon eposi namunasidir". Rus adabiyotida L.N.Tolstoyning "Urush va tinchlik", M.Sholoxovning "Tinch don", A.N.Tolstoyning "Ulug' Pyotr" singari romanlari bilan bat afsil tanishish mazkur fikrni to'la tasdiqlaydi. Yozma adabiyotdagi ilk epopeya Rim adabiyotida, xususan, Vergiliy ijodida ko'zga tashlangan edi. Zotan, "Eneida" asaridayoq an'analarni ijodiy o'zlashtirish, qahramonlik yurishlari va liro-romantik pafos ustuvorligi kuzatiladi. Volterning "Genriada", Balzakning "Inson komediysi" asarlarida esa, ijtimoiy tuzumga tanqidiy munosabat bildirish barobarida ma'rifikat, ijtimoiyadolat, hurriyat, inson aql-zakosiga ishonch g'oyalari ulug'lanadi. Realistik tasvir, insoniy dramalar ifodasi salmog'i orta boradi.

Rus yozuvchilari L.N.Tolstoy va A.N.Tolstoylar yaratgan epopeyalarda Napoleon Banopart va Pyotr I singari tarixiy shaxslar taqdiri misolida ijtimoiy-tarixiy voqelik, xalq ongidagi uyg'onish, umumiyl dushmanga qarshi yakdil kurash, ijtimoiy tenglik vaadolat, ma'rifikat g'oyalari ilgari surilgan. M.Sholoxov ham xalq turmushi, mehnat va jang epizodlarini chetlab o'tolmagan. Demak, epopeya -umumxalq ahamiyatiga molik muammolar qo'yilgan yirik epik asardir

Ma'lumki, ilk eposdan shakllangan roman janri bugungi kunda epopeya shakligacha taraqqiy etgan. Jahon adabiyotshunosligida to'rt mustaqil asar birligidan iborat tetralogiyaning tadrijiy taraqqiyoti, o'ziga xos xususiyatlari, badiiy shakl ko'rinishlari izchil o'rganilgan. O'zbek adabiyoti taraqqiyoti davomida ham roman janrining shakliy ko'rinishlari bo'lgan dilogiya, trilogiya, tetralogiya, pentalogiya namunalari adabiyotshunos olimlar tomonidan ma'lum bir jihatlari o'rganilgan. Ammo, o'zbek tetralogiyasining shakllanishi va tadrijiy taraqqiyoti monografik jihatdan tadqiqga tortilmagan. Adabiyot nazariyasining muhim muammolaridan biri – roman janrining ko'rinishi bo'lgan tetralogiya shakli masalasi diqqat markazga qo'yilgan. "Tetralogiya g'oyasi va mazmuni bir xil bo'lgan adabiy yoki musiqiy asar deganidir" [1.84 b.]



deb ta'kidlangandek, tetralogiya shaklining yana bir muhim xususiyati – obrazlarning asardan-asarga o'tib, bir-biri bilan o'zaro tutashuvida ham namoyon bo'ladi.

Maqolada tetralogiyaning yetakchi shakl belgilarni ochib berish masalasi, shaklning yuzaga kelishidagi hayotiy, tarixiy va adabiy omillarni tadqiq etishga, o'zbek adabiyotida mazkur shaklning paydo bo'lishi va taraqqiyot xususiyatlarini o'rganishga e'tibor qaratilgan. Tetralogiyaning yetakchi shakl xususiyatlari uning kompozitsion qurilishidagi o'ziga xoslik, sujet yo'nalishlari jihatidan nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan to'rtta asar hisoblanishi, asarlar tarkibida qatnashadigan umumiyligini qahramonlarga egaligi, ulardagi sujet chiziqlarining davomiyligi, muallif niyatining har uchala asar uchun ham yagonaligi va shulardan kelib chiquvchi yaxlit konsepsiya tufayli butunlikka birikuvidan tashkil topishi kabilarda ko'ringan.

O'zbek nasrida ham tetralogiya shaklidagi asarlar katta badiiy qadriyat sifatida yaratildi, voqelikka aylandi, roman janrini boyituvchi xususiyatlar paydo bo'ldi, epik tur nazariyasini boyitishi yetakchilik qilayotganligi sababli adabiyotshunoslar uchun ayni adabiy hodisani chuqur o'rganish, badiiy-estetik vazifalarini aniqlash va bu orqali zamonaviy adabiyotshunoslikda erishgan yutuqlar mohiyatini ochib berish zaruratini keltirib chiqaradi.

XX asr o'zbek adabiyotida yuzaga kelgan S.Ayniyning "Qullar", Cho'lponning "Kecha va kunduz", Oybekning "Navoiy", J.Sharipovning "Xorazm" singari asarlar o'z asosiga qo'yilgan problemasi va tasvir ko'lamiga ko'ra epopeyaga xos xususiyatlarni namoyon etsa-da, istiqlol yillardagina Muhammad Alining "Ulug' saltanat" roman-tetrologiyasi orqali chin ma'nodagi roman-epopeya yaratildi. Biroq mazkur shaklning rivojlanish va taraqqiyot yo'li adabiyotshunosligimizda hanuz maxsus tadqiq etilmagan.

"Tarixni teran anglash asosida yaratilgan "Ulug' saltanat" (Muhammad Ali) tipidagi roman-epopeyalarning dunyoga kelishi milliy tafakkur ehtiyojining samarasi. "Ulug' saltanat" sujet sertarmoqligi, epik tarixni aks ettirishi jihatidan xalq qahramonlik eposlariga, buyuk tarixiy shaxslar, ko'plab mamlakat va xalqlar taqdiri, o'zaro nizoli urushlar tarixi, davr madaniy hayoti manzaralarini markazlashgan saltanat bunyod etish umidida intilgan Amir Temur shaxsiyati orqali gavdalantirishi jihatidan tarixiy-memuarlar uslubiga yaqin turadi" [2.31b.].

Maqola rus va jahon adadabiy-estetik hamda falsafiy tafakkuri ilg'or yutuqlarini ijodiylashtirish, tarixiy merosni qayta idrok etish, adabiy jarayon tendentsiyalarini oydinlashtirish, mavjud ilmiy-nazariy qarashlarimizga muayyan yangiliklar olib kirishi bilan dolzarblik kasb etadi. O'zbek olimlaridan E.A.Karimov tadqiqotlarida L.N.Tolstoy, O.Sharafiddinov izlanishlarida esa M.Sholoxov ijodi muayyan darajada tadqiq etiladi. Biroq bu tadqiqotlarning barchasi o'tgan asrning 50-80- yillarda amalga oshirilgan.

M.Qo'shjonov, haqli ta'kidlaganiday, sohibqiron Amir Temurning ulug'vor shaxsiyati haqida epopeya shaklida asar yaratish nafaqat istiqlol bergan imkoniyat, balki hayot talabi hamdir. Zotan, Muhammad Alining "Ulug' saltanat" roman-tetrologiyasi jangnoma tipidagi doston emas, balki qismat etovidagi oddiy inson taqdiri aks etganligi jihatidan o'ziga xos realistik asardir. M.Qo'shjonov, N.Karimov, A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, A.Alimbekov, I.Yoqubov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida Muhammad Alining moziyga yondashuv pozitsiyasi, san'atkorona talqini nuqtai nazaridan o'rganildi.

"Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasining yuzaga kelishi mamlakatimiz ma'naviy hayotida, xalqimiz tafakkurida yuz bergan umumiyligini jarayonlar bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi. Romandagi aksariyat o'ziga xosliklar yangi tarixiy davrning taqozosisi, milliy adolatning badiiy haqiqat tarzida qaror topishi sifatida izohlanib, asar shu asosda kuzatiladi.



Masalaning ilmiy yangiligi sifatida Muhammad Ali tetrologiyasi ilk bor Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma"lariga tayangan holda qiyosiy asosda o'rganiladi. O'tgan asrning 50-80- yillarda epopeya muammolari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning ayrim jihatlari bilan bahs-munozaraga kirishiladi. Roman-tetralogiyaning genetik ildizlari, taraqqiyot tamoyillari, shakl tabiatiga xos belgi-xususiyatlari, ijtimoiy-tarixiy voqelik ifodasi hamda umumxalq ahamiyatiga molik muammolar talqini, shuningdek, tarixiy-badiiy merosni qayta idrok etish muammosi singari nazariy-metodologik masalalarga munosabat bildiriladi.

"Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasining yuzaga kelishi milliy istiqlol bergen imkoniyat va hayot talabi ekanligi ko'rsatiladi. Shakl tabiatiga xos jangnomalik tipik xususiyati hozirgi adabiy jarayonda kechayotgan tendentsiyalar ta'sirida muayyan modernizatsiyaga uchraganligi inkishof etiladi. Roman-epopeyada ulug'vor tarixiy shaxs – Amir Temur qismat yetovidagi oddiy inson sifatida aks ettirilganligi tadqiq etiladi. "Ulug' saltanat" va XX asr o'zbek adabiyotida yuzaga kelgan S.Ayniyning "Qullar", Cho'lponning "Kecha va kunduz", Oybekning "Navoiy", J.Sharipovning "Xorazm" singari asarlarini qiyosiy o'rganish natijasida milliy romaniy tafakkur tarziga xos mushtarak va farqli jihatlar oydinlashtirilib, yozuvchilar estetik ideali va ifoda mahorati, moziyga yondashuv pozitsiyasi, san'atkorona talqini muammolari inkishof etiladi.

Professor D.To'rayev ta'kidlashicha: "Muhammad Ali roman-epopeyaning mazkur kitobida juda katta hududlarda, vaqt va makonlarda juda ko'p qahramonlarni, Sohibqiron taqdirini saltanat taqdiri bilan bog'laydi. Turon saltanati qanday fidokorlik, mashaqqatlar, qahramonliklar bilan bunyod etilganligini ko'rsatadi" [3.98 b.]. Tarixiy shaxslarning ijtimoiy-siyosiy, oilaviy-maishiy, axloqiy-ta'limi planda davrning murakkab sharoiti, keskin ziddiyatlaridan ajratmagan holda tahlil etilishiga diqqat qaratiladi. Shakl tabiati poetik tafakkur tadriji, mamlakatimiz ma'naviy hayotida yuz bergen umumiylar bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi. Roman-tetralogiyadagi o'ziga xosliklar har bir tarixiy davrning taqozosi, milliy adolatning badiiy haqiqat tarzida qaror topishi sifatida tahlil va tadqiq etiladi. Ilgari surilgan fikr-mulohazalar muayyan tarzda umumlashtiriladi. Muhammad Alining "Ulug' saltanat" asari misolida roman-tetralogiyaning shakllanish va yuzaga kelish omillarini o'rganish, tarixiy qahramon obrazini epik ko'lamdorlikda turli ifoda rakurslaridan yoritishning o'ziga xosligi, ijodiy-uslubiy individuallik va janrlar modifikatsiyasi muammolarini yaxlit adabiy jarayon kontekstida tadqiq etib, roman-tetralogiyaning tarixiy-adabiy asoslarini aniqlab va shakl tabiatiga xos yetakchi belgi-xususiyatlarni belgilash orqali XX asr o'zbek nasrida epopeyaning shakllanish va taraqqiyot yo'llini ko'rsatish mumkin. Tetralogiya shaklida hamma yozuvchi ham birdek mahorat bilan qalam tebrata olmaydi. Bu – ijodkordan katta va boy malaka talab qilishidan tashqari iste'dodning darajasini belgilovchi bosh mezondir, degan nazariy qarash ilgari surilgan. Bu – bir, ikkinchidan, faqat boqiy mavzularda izlanishgina (hayot va o'lim, sevgi va riyohiyonat, ezgulik va zulm-zalolat, nur va zulmat) hamda umumbashariy masalalarga badiiy-estetik, falsafiy yo'sinda javob axtarishgina roman-tetralogiyaning badiiy tahlil va tadqiq ob'ekti hisoblanadi. U o'ziga xos va o'zligini namoyon etadigan mos mavzu-masalalalar manerasiga ega. Ana shu yuksak masnadda iste'dod miqyoslarini namoyish eta bilgan so'z san'atkorigina qutlug' natijaga erisha oladi, degan muhim ijod qonuniyatini ilmiy-nazariy tasdiqlashga muvaffaq bo'linadi.

Xarakter tasviri va poetik ifoda rakurslari turfaligi roman-tetralogiyaning muhim yutug'i ekanini ko'rsatish, xususan, realistik tasvir, ramziy-majoziy va liro-romantik talqin



imkoniyatlarini o'rganish bilan birgalikda, ijodiy-uslubiy individuallik va janr va shakllar modifikatsiyasini o'rganish orqali adabiy ta'sir va uslubiy tadrij jarayorini ko'rsatish, roman-tetralogiyasidan kelib chiqadigan xulosalar adabiyotshunoslikka, xususan, eposshunoslikka tegishli muammolarni oydinlashtirishga yordamlashadi. Shuningdek, roman-tetralogiyada shakllarining integratsiyalashuvi hamda "Ulug' saltanat" tetralogiyasida kompozitsion yaxlitlik muammolari tadqiq etildi, ulardan tegishli nazariy umumlashmalar chiqarildi.

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, tarix va tarixiy shaxslarga munosabatda nazariy-metodologik qarashlarning tubdan yangilanishi tarixiy merosimizning qayta badiiy idrok etilishi uchun keng yo'l ochishi Muhammad Alining estetik ideali va adabiy-estetik kontseptsiyaga kuchli ta'sir etganini, roman-tetralogiyada dialektik determinizmning yetakchi mavqeda turishi asar badiiy voqeligining poetik talqin imkoniyatlarini kengaytiganini, shuningdek, roman-tetralogiyada tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligini ta'minlagan omillar o'rganildi.

Adabiyotlar:

1. Saidov A. Ulug' saltanat – ulug'vor ajdodlarimiz tarannum etilgan asar. Ulug' saltanat. – T.: Mashhur press, 2017. – B. 84.
2. Yoqubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. – T.: Nurafshon busines, 2021. – B. 31.
3. To'rayev D. O'zbek tetralogiyasi. – T.: Akademnashr, 2017. – B. 98.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДЛЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЦЕЛЕЙ

Мирходжаева Махлиё Исломовна

Бухарский государственный университет

Преподаватель английского языка

по гуманитарным предметам

Тел: 909910580 e-mail:prettygirl_22@gmail.com

Аннотация: В статье дается синопсис и анализ современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в области обучения английскому языку для специальных целей.

Ключевые слова: английский язык для специальных целей, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), мультимедийные технологии, веб-квест, Wiki, высшее профессиональное образование.

INGLIZ TILINI MAXSUS MAQSADLARDA O'QITISHNING INNOVATION USULLARI

Mirxdjayeva Maxliyo Islomovna

Buxoro davlat universiteti

Gumanitar yo'naliishlarda chet tillar kafedrasi ingliz tili o'qituvchisi

Tel: 909910580 e-mail:prettygirl_22@gmail.com

Annotations: Maqolada ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning konsepsiyalari va tahlillari keltirilgan.



МУНДАРИЖА

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ

01.00.00

ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

1	Kvadratik va kubik stoxastik jarayonlar Boboqulova S.B	3
2	Учинчи тартибли сингуляр коэффициентли гиперболик типдаги тенглама учун қўйилган чегаравий масалани ечиш. Меликўзиева Д.М	6
3	Экспериментальное исследования поляризуемости и дипольного момента трансформаторной масли трм-3 Кучкаров Х.О, Абдуназаров А.А, Нематжонов Ш.Р	13
4	Steam ta'limining afzalliklari Nurmatova M, M	19
5	Кучли электромагнит майдондаги p-n ўтиш дифференциал қаршилиги ва диффузион сиғимига деформация ва ёруғликнинг таъсири Гулямов Г, Дадамирзаев М. Г , Косимова М.О	23
6	Суперконденсаторлар учун полимер гидрогелларни физик-механик хоссаларини тадқиқ қилиш Шодманов Ж.А, Боймирзаев А	30
7	О равномерной сходимости случайных полей в $c(s)$ Акбаров М, Мирзакаримова Н.М	34
8	Физикадан ночизиқли таълим траекторияларини куришнинг методик модели Имомов О.Э	37
9	Металларнинг сирти ва сиртига яқин соҳалари хоссаларини ионли бомбардировка таъсирида ўзгариши Элмуродов Р, У, Ниязов Ш.К, Саматов F,Б, Абдуллаев А, Маърипов И. И,Файзуллаев А	42
10	Ikki o'lchamli materiallarda fermi energiya ossilyatsiyalariga kvantlovchi magnit maydonning ta'siri Mirzayev J.I	51



КИМЁ ФАНЛАРИ

02.00.00

**ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ
CHEMICAL SCIENCES**

11	Саримсоқпиёздан озиқ-овқат қүшилмалари тайёрлаш ва уларни кимёвий таркибиға құра синфлаш Асқаров И. Р, Исақов Х, Маматқурова Ү.О	56
12	Моддалар билан ипак матоларни бүяш жараёнини жадаллаштириш Хазратова Д. А, Ихтиярова Г.А, Алиева М. Т	62
13	Влияние криогенного консервирования на кристаллообразование в сырье растительного происхождения Джураева Л. Р, Мухамадиев Б.Т	68
14	Кротонилиденимин-о-бензой кислотанинг электрон структурасини квант-кимёвий ҳисоблашлар ёрдамида тадқиқ қилиш Назаров Н.И, Бекназаров Ҳ.С, Мирзаева Г. А	72
15	Нокондицион фосфоритларни органоминерал ўғитларга қайта ишлаш Темиров Ү.Ш, Усанбаев Н.Х, Намозов Ш.С, Маматалиев А.А, Пиримов Т.Ж	75
16	Поливинилхлоридни моногетаноламин билан модификациялаш орқали янги сорбентларнинг синтези Бозоров Л.У, Тўраев Х.Х, Умбаров И.А, Касимов Ш.А, Эшкараев С.Ч.....	80
17	Ўзаро аралашмайдиган иккиласчи полимерлар асосида композицион материаллар ишлаб чиқариш тенденцияларига замонавий ёндошиш Бекназаров Э.М, Лутфуллаев С.Ш, Жўраев З.Ю	85

БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

03.00.00

**БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
BIOLOGICAL SCIENCES**

18	Баъзи ноёб доривор ўсимликларни <i>in vitro</i> шароитида қўпайтиришнинг назарий асослари Дехқонов Д.Б, Мустафина Ф. У	89
19	Zarafshon vohasida istiqomat qiluvchi kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini baholash Rasulov S. Q, To'ramqulov Sh.N	93
20	Тошкент ботаника боғи шароитида <i>acer campestre</i> l. баргларининг морфометрик белгиларини қиёсий ўрганиш Хакимов Ш. В, Лаптева Р. А, Махкамов Т.Х	99
21	Магнолия грандифлора (<i>m.grandiflora</i> l.) уруғқўчватларини ўсиши ва ривожланишига минерал ўғитларнинг таъсири. Бахрамов Р.М	105



**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES**

10.00.00		
48	Ошибки в письменной работе студентов	
	Хамдам-зода Л	251
49	Sinxron tarjima san'atini egallash strategiyalari	
	Abdullayeva G. G	257
50	Индивидуальные вариации в овладении вторым языком	
	Бобокулова Г.Ш	263
51	Эртак ва унинг тарихига бир назар	
	Имяминова Ш.С.....	267
52	Comparative research of english and Uzbek toponyms	
	Ismatova N.M	270
53	Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida "Happiness" va "Baxt" kontseptining ifodalanishi	
	Jumayeva O.I	275
54	Теория множественного интеллекта и изучение языка	
	Каххорова Ш.Ш	279
55	Tetralogiyaning tadrijiy taraqqiyoti	
	Qo'yliyeva G.N	283
56	Иновационные методы обучения английскому языку для специальных целей	
	Мирходжаева М.И	287
57	Oliy o'quv yurtlarida rusiyabon talabalarga o'zbek tilini o'qitish muammolari	
	Normatova Sh.U	291
58	Abdulla Oripovning "Haj daftari"she'riy turkumi haqida	
	Fayzullayeva O.X	295
59	Feminist yozuvchilar asarlarida badiiy tasvir vositalarini qo'llanilishi xususida	
	Abdullayeva N	299
60	Yetuk o'zbek adibi Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asari misolida tarixiy inversiya	
	Naimova A.M	303
61	Тилшуносликда матн талқини	
	Қозоқова Н.А	308
62	Обучение Английскому языку с помощью литературы	
	Курбонова Ш.Х	312
63	Frazeologiyani o'rganish va inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklarning chog'ishtirma tahlili	
	Saidova Z.X	316
64	Ўзбек тилида тарз ифода воситаларининг морфологик, синтактик, лексик ва услубий ифодаланиши	
	Абдуллаев А	320



65	Ona tili darslarida o`quv lug`atlaridan foydalanish samaradorligi	325
	Tursunova O.F	
66	Aforizmlar lingvistik tadqiqot obyekti sifatida	330
	Akramov I.I	
67	Насимий ва фурқат ижодида табиат тасвири	335
	Амонова З. Қ	
68	Бахшининг бадиий маҳорати	339
	Тилавов А	
69	Инглиз ва ўзбек тилларида эвфемизмларнинг ўрганилиши ва лисоний хусусиятлари	342
	Рузиева Н.З	
70	Мумтоз жанрда макон ва вақт категорияси (Алишер Навоий шеърлари мисолида)	347
	Йўлчиев Қ.В	
71	Использование лингвистической терминологии при изучении сегментной фоностилистики имени существительного русского, Узбекского и Английского языков	353
	Гафуров Б.З	
72	Biznes turizm terminlarining qiyosiy lingvo-semantik tahlili	357
	Gavharoy Isroiljon qizi	
73	Абдулла Ориповнинг поэтик сўздан фойдаланиш маҳорати	365
	Хамдамов А.Н	
74	Синтаксик фигуralар таснифи	371
	Абдулпаттоев М.Т	
75	Sayyid Qosimiy asarlarida badiiy san'atlar	377
	Normurodov O.B	
76	Frazeologik birliklarning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari	380
	Saidova N. A	
77	Специфика в изображении образа «кавказского пленника» в русской литературе	386
	Юлдашева О	
78	Сўз" ва "Термин" концептларининг лингвистик таърифлари ҳамда уларнинг ўзаро муносабатлари	390
	Хамдамов Р.М	
79	Ҳ.Худойбердиеванинг сўзларни кўчма маънода қўллаш маҳорати	395
	Юсупова Д.Ю	
80	Intonatsiya va pauzaning uslubiy xususiyatlari	403
	Yadgarova Z.T	